| Xamroyeva Madina Dadajonovna, Umarov Husan Lazizi о'г'ли | |
| Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish..... | 650 |
| Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo | |
| Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili..... | 655 |
| Xodjaniyazova Shoxsana Ergash qizi | |
| O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umurlar" romanida inson va uning ruhiyati | 660 |
| Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi | |
| Talabalarda liderlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar | 663 |
| Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna | |
| Creative Games and Project-Based Learning in Physics Lessons | 666 |
| Yorqinbek Abduraimjanovich Mamatokhunov | |
| Теоретические основы и практическое применение компетентностного подхода в обучении физике | 670 |
| Абдулхаким Хакимов | |
| Роль инклюзивной игровой деятельности в социальной адаптации детей с инвалидностью дошкольного возраста | 673 |
| Плиева Руслана Владимировна | |
| "Beruniy asri" yoxud Beruniyning xarizmatik qobiliyati va uning boqiy ilmiy merosi | 676 |
| Saifnazarov Ismoil, Sultonov Tursinboy | |
| Значение наблюдения и педагогической диагностики в инклюзивном образовании..... | 682 |
| Тургунова Нилуфар Абдусаломовна | |
| Maktabgacha yoshidagi bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish texnologiyalari | 685 |
| Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna | |
| Диалог культур в рассказе "Келинка" галины шириевой: гендерная и этнокультурная перспектива.. | 689 |
| Чернова Татьяна Алексеевна | |

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING ATROF-MUHITGA EKOLOGIK MUNOSABATINI OSHIRISHDA EKSKURSIYA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARНИNГ O'RNI

UDK 37.06+004

BBK 74.202.5

B 79

Bovanova Umida Abduvahabovna

Katta o'qituvchi, Boshlang'ich ta'lifm nazariyasi va metodikasi kafedrasи,
Pedagogika fakulteti, Toshkent amaliy fanlar universiteti

Meliqulova Oybahoр Farhod qizi

Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lifm yo'nalishi, 3-bosqich talabasi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

ORCID: 0009-0009-9659-1071

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga nisbatan ekologik munosabatini shakllantirishda ekskursiya mashg'ulotlarining didaktik ahamiyati hamda bu jarayonda raqamli texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Ekskursiya darslari o'quvchilarda atrof-muhitni anglash, amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) joriy etilishi bu jarayonni interaktiv, jonli va qiziqarli shaklga keltiradi. Maqolada virtual ekskursiyalar, mobil ilovalar, QR-kodlar, 3D-modellar, dronlar orqali real vaqtli kuzatuv kabi texnologiyalarining ta'limi samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ekskursiya mashg'ulotlarini ko'rgazmali va hissiy jihatdan boyitadi, bu esa o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirib, mustahkam bilim hosil qilishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ekskursiya mashg'uloti, raqamli texnologiyalar, virtual ekskursiya, QR-kod, mobil ilovalar, interaktiv dars, AKT, vizual ta'lif, pedagogik yondashuv.

Abstract: This article examines the didactic importance of excursion lessons in shaping the ecological attitude of primary school students toward the environment and explores the possibilities of using digital technologies in this process. Excursion lessons play a crucial role in helping students understand nature and develop practical knowledge and skills. The integration of modern information and communication technologies (ICT) makes the process more interactive, visual, and engaging. The article analyzes the educational effectiveness of tools such as virtual excursions, mobile applications, QR codes, 3D models, and real-time drone-based observation. The results of the study indicate that digital technologies enhance excursion lessons both visually and emotionally, thereby increasing students' interest in subjects and helping to solidify their knowledge.

Key words: primary school, excursion lesson, digital technologies, virtual excursion, QR code, mobile applications, interactive lesson, ICT, visual education, pedagogical approach.



Аннотация: В статье рассматривается дидактическое значение экскурсионной деятельности в формировании экологического отношения учащихся начальных классов к окружающей среде, а также возможности использования цифровых технологий в этом процессе. Экскурсионные занятия играют важную роль в понимании природы, формировании практических знаний и навыков. Особенно внедрение современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) делает процесс более интерактивным, наглядным и увлекательным. В статье проанализирована образовательная эффективность таких технологий, как виртуальные экскурсии, мобильные приложения, QR-коды, 3D-модели и наблюдение в реальном времени с использованием дронов. Результаты исследования показывают, что цифровые технологии визуально и эмоционально обогащают экскурсии, способствуя повышению интереса учащихся к предметам и закреплению полученных знаний.

Ключевые слова: начальная школа, экскурсия, цифровые технологии, виртуальная экскурсия, QR-код, мобильные приложения, интерактивный урок, ИКТ, наглядное обучение, педагогический подход.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, xususan sun'iy intellekt (SI) va ta'lim sohalarida bir qator muhim qarorlar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2025-yilning "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi ekologik barqarorlikka davlat darajasida katta e'tibor qaratilayotganining yaqqol dalilidir.

Sun'iy intellekt va ta'lim sohalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevalda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli¹ qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli² kiradi.

Hozirgi kunda atrof-muhitda yuz berayotgan turli ekologik ziddiyatlarning oldini olish va chora-tadbirlar ishlab chiqishda ekologik ta'lim va tarbiya masalalarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi maqsadlarga erishish lozim:

- jamiyat va tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini, ular o'rta munosabatlarni har bir insonga chuqr o'rgatish, zamonaliv fikrlovchi shaxsni tarbiyalash, ishlab chiqaruvchi kuchlarni yo'naltirishda turli tabiiy rayonlarning ekologik holatini inobatga olish;
- kelajak uchun ekologik reja ishlab chiqish va uni amalga oshirishga qodir ekolog-mutaxassislarni tayyorlash;
- har bir inson, jamiyat hamda turli ijtimoiy guruh va qatlamlarning o'zları yashab turgan muhit bilan umrboqiy muloqotini tabiat va uning boyliklarini asrashga yo'naltirish, bu yo'naliishda malakali kadrlar tayyorlash;
- jamiyat a'zolarining ijtimoiy, madaniy va diniy qarashlari hamda urf-odatlarini rivojlantirishda o'zları yashab turgan hudud, vodiylar, to'qayzor, adirlar, tog'lar va soylarning go'zalligini, ularning inson hayoti va salomatligidagi o'rnini va ahamiyatini yosh avlodga tushuntirish orqali ularda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish;
- ekologik ziddiyatlarning yuzaga kelish sabablari haqida aholiga tushuncha berish, ular orasida ekologik ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish, ziddiyatlarning oldini olishga doir usullar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llashga o'rgatish;
- yuqoridaq vazifalarni amalga oshirish bog'cha tarbiyachilar, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining turli o'yinlar, filmlar hamda tabiiy va ijtimoiy fanlarni o'qitishda o'zları yashab turgan hududdagi tabiiy voqealar va ekologik holatlarga bog'lab ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi orqali amalga oshiriladi^[6, 44].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI

X-XII asrlarda O'rta Osiyoning buyuk allomalari – Al-Xorazmiy, Al-Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino o'zlarining tarixiy asarlarida yer tuzilishi, suvning ko'payish va kamayish qonuniyatları, dorivor o'simliklar va hayvonlarning yashash joylari, qiyofasi, ildizlari, rivojlanish davrlaridagi foydali xususiyatlari haqida muhim ma'lumotlar bergenlar.

XIX asr boshlarida biogeografiya fanining shakllanishi ekologik ma'lumotlarning ilmiy ravishda to'planishiga katta hissa qo'shti. Jumladan, A. Gumboldt (1809) o'z tadqiqotlarida turli iqlim sharoitlarida o'simliklarning yashash shakkllari farq qilishi holatini ochib bergen.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevalda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-5297046>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-7158604>

Ekologiyada 1930-yillarda yangi yo'nalish – populyatsiyalar ekologiyasi shakllandı. Uning asoschisi ingliz olimi Ch. Elton bo'lib, u "Hayvonlar ekologiyasi" nomli asarida asosiy e'tiborni individual organizmlardan populyatsiyalar darajasiga qaratishni taklif etgan. 1935-yilda esa ingliz olimi A. Tensli "ekosistema" tushunchasini, 1942-yilda esa V. N. Sukachev "biogeotsenozi" atamasini fanga kiritgan.

1983-yilda BMT Bosh kotibi tashabbusi bilan Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya tashkil etildi. Norvegiya bosh vaziri G. X. Bruntland rahbarligida komissiya 1987-yilda "Bizning umumiyligi kelajagimiz" nomli ma'ruzani e'lon qildi. Ushbu hujjatda global ekologik muammolar iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolaridan ajralgan holda hal etilishi mumkin emasligi ta'kidlangan. Komissiya atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lgan iqtisodiy va ekologik rivojlanish modeliga o'tishni qo'llab-quvvatlagan.

1992-yil 3–14-iyun kunlari Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiysi bo'lib o'tdi. Unda 179 ta davlat rahbarlari, hukumat vakillari, ekspertlar, nodavlat tashkilotlar, ilmiy doiralar va biznes vakillari ishtirok etdilar. O'zbekiston Respublikasi Rio deklaratsiyasini ratifikasiya qildi hamda Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konvensiya va Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyalarga qo'shildi.

1998-yilda Barqaror rivojlanish konsepsiysi ishlab chiqildi, 1999-yilda esa Barqaror rivojlanishning milliy strategiyasi qabul qilindi. 2002-yilda "XXI asrga Kun tartibi" O'zbekistonda amaliyatga joriy qilindi. Shu tariqa barqaror rivojlanishni ta'minlash O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Pedagogik sohada Lev Vygotskiy va Jan Piaje konstruktivistik yondashuv orqali bolalarning tajribani amaliyat asosida o'zlashtirishga moyilligini asoslab bergan (Vygotsky, 1978). Ekskursiyalar ushbu faoliyatning tabiiy shakli hisoblanib, bola real ob'ektni kuzatadi, unga tegadi, sezadi va tahlil qiladi. Bu uslub empirik-idrokiy yondashuvga asoslanadi.

Konstantin Dmitrievich Ushinskiy (1824–1870) – rus pedagogi, bolani atrof-muhit orqali tarbiyalash g'oyasini ilgari surgan. U "Tabiat – bu eng buyuk o'qituvchi" degan fikrni ilgari surgan va ekskursiyalar orqali bolada kuzatuvchanlik, tafakkur va hissiy tushunchalar shakllanishini urg'ulagan.

Anton Semyonovich Makarenko (1888–1939) – sovet pedagogi. U ekskursiyalarni jamoaviy tarbiya vositali sifatida baholagan. Tabiat bilan bevosita muloqot orqali bolada ijtimoiy mas'uliyat va mehnatga mehr shakllanishini asoslagan.

Vasiliy Sukhomlinskiy (1918–1970) – ukrain pedagogi, "Tabiat qo'ynida tarbiya" konsepsiyasini ilgari surgan. U tashqi ekskursiyalar bolalarda estetik did, ekologik hissiyot va mehr-oqibatni rivojlanishini ta'kidlagan. Ushbu g'oyalar "Qalb tarbiyasi" asarida keng yoritilgan.

John Dewey (1859–1952) – amerikalik pedagog, tajriba asosidagi ta'lif tarafdoi. Ekskursiyani "learning by doing" – ya'ni "amaliy o'rganish" metodikasining ajralmas qismi sifatida ko'rgan. Uning fikricha, ekskursiyalar orqali bola hayotiy bilim va tanqidiy tafakkurni o'zlashtiradi.

O'zbek olimlaridan To'raqulova G. M. ekologik tarbiya sohasida tadqiqot olib borgan. U boshlang'ich ta'limda ekologik ekskursiyalarni tashkil etish metodikasini ishlab chiqqan va bolalarning tabiatni o'rganish orqali ekologik madaniyatni egallashini ta'kidlagan. Shuningdek, Kadirova M. S., Juraeva R. X., Maxkamova D. K. kabi tadqiqotchilar ekskursiyalarni ekologik ongni shakllantirishda didaktik vosita sifatida tahlil qilganlar. Ular O'zbekiston maktablari uchun ekskursiya asosidagi dars ishlamalariga oid metodik qo'llanmalar muallifi hisoblanadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy ta'lif jarayoni axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichida ta'lif sifati va samaradorligini oshirishda yangi pedagogik metodlar, raqamli vositalar va interaktiv yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Bu bosqich o'quvchilarining psixologik va fiziologik xususiyatlari ularning bilimga bo'lgan qiziqishini amaliyat orqali shakllantirishni talab etadi. Shu sababli atrof-muhitga oid ekologik bilimlarni oshirishda ekskursiya mashg'ulotlari – ya'ni darsdan tashqari o'rganish shakllari – boshlang'ich ta'limda alohida o'r'in egallaydi.

Ekskursiya mashg'ulotlari orqali o'quvchilar atrof-muhit bilan bevosita tanishadilar, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni amaliy ravishda kuzatadilar, o'rganilayotgan mavzularni hayotiy misollar orqali idrok etadilar. Bunday faoliyat shakli ularning estetik, ekologik va madaniy dunyoqarashini kengaytiradi. Ammo zamonaviy davrda ekskursiyalarni tashkil etishda faqat an'anaviy usullar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Texnologik taraqqiyot maktab ta'limi uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

O'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan ekologik munosabatni shakllantirishda raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan ekskursiyalar muhim va samarali metod hisoblanadi. Bugungi kunda virtual ekskursiyalar, QR-kodlar asosida tuzilgan interaktiv xaritalar, mobil ilovalar orqali qo'shimcha ma'lumotlar olish, dronlar yordamida ob'yektlarni kuzatish, 3D-modellar asosida tarixiy obidalarni o'rganish kabi texnologik imkoniyatlar mavjud. Ular ekskursiya mashg'ulotlarini yanada jonli va ta'sirchan shaklga keltiradi. Ayniqsa, geografik jihatdan

uzoq joylardagi ob'yektlar bilan tanishishda yoki noqulay ob-havo sharoitida an'anaviy ekskursiyalarni o'tkazishning imkonи bo'lмаган holatlarda raqamli texnologiyalar katta qulaylik yaratadi.

Shu munosabat bilan, ushbu maqlolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ekskursiya mashg'ulotlarini o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari, samaradorlik darajasi hamda amaliy tavsiyalari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqsad – ta'lim jarayonini vizuallashtrish va hissiy faoliyatni kuchaytirish orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishdir.

Ta'limning ilk bosqichlarida o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish, tabiat va jamiyat hodisalari to'g'risidagi tasavvurlarni boyitish, amaliy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda ekskursiya mashg'ulotlari muhim rol o'ynaydi. Ekskursiya darsi – bu o'quvchilarning bilish ehtiyojini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan dars shaklidir. Mashg'ulotlar, odatda, ochiq havoda yoki muayyan ob'yektlarda – muzeylar, tabiat qo'riqxonalari, tarixiy yodgorliklar, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa joylarda tashkil etiladi.

Didaktik nuqtai nazardan, ekskursiya mashg'ulotlari quydagi vazifalarni bajaradi:

- nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash;
- o'quvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur va mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- vizual tasavvurni kengaytirish va ongli idrokni shakllantirish;
- mustaqil o'rganish, xulosa chiqarish va fikr bildirishga undash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi pedagogik paradigmalarda faoliyatga asoslangan ta'lim (Activity-Based Learning) hamda loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) modellarida ekskursiyalar integrallashgan holda qo'llaniladi. Bunda o'quvchilar nafaqat tayyor bilimni oladilar, balki uni ishlab chiqish, baholash va taqdim etish jarayonida faol ishtirok etadilar. Ta'lim tizimi iqtisodiy o'sish va yangi mehnat munosabatlari bilan ajralib turadigan raqamli asrga ishonchli o'tishni ta'minlashi kerak. Muntazam jarayonlarni bajaruvchi sun'iy intellekt texnologiyalari mehnat bozorida mustahkam o'r'in egallashi lozim [4, 387].

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'limda interaktivlikni oshiradi, ko'rgazmalilikni kuchaytiradi va o'quvchini mustaqil bilim olishga yo'naltiradi. Ekskursiya mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish quydagi ustunliklarni beradi:

- Virtual ekskursiyalar – geografik yoki ob-havo sharoitlari sababli borish imkonи bo'lмаган joylarni 360° vizual formatda ko'rish imkonini beradi (masalan, Google Earth, National Geographic Kids, VR muzeylar).
- Mobil ilovalar – QR-kod yoki AR texnologiyalar yordamida obyektlar haqida interaktiv ma'lumot olish imkonini yaratadi (masalan, Nature Walk, Seek by iNaturalist).
- 3D-modellar – tarixiy, geografik va biologik obyektlarni hajmli, animatsion ko'rinishda tasvirlash orqali bolalarning vizual idrokini kengaytiradi.

Dronlar orqali real kuzatuv – masofadan turib, o'rmonlar, daryolar, yer osti boyliklari yoki yirik inshootlarni onlayn kuzatish imkonini beradi.

Bunday vositalar orqali o'quvchilarda:

- joy va makon haqidagi tasavvurlar kengayadi;
- mavzuga nisbatan motivatsiya ortadi;
- mustaqil fikrlash, savol berish va izlanish ko'nikmalarini shakllanadi.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan ekskursiya modeli

| Ekskursiya turi | Raqamli texnologiya | O'quvchilarda rivojlanadigan ko'nikmalar |
|-------------------------------------|--|--|
| Botanika bog'iga ekskursiya | "PlantNet" ilovasi orqali o'simliklarni aniqlash | Kuzatuvchanlik, tahlil qilish, sintez qilish |
| Muzey ekskursiyasi | QR-kodli interaktiv gid tizimi | Tarixiy tafakkur, faktlar asosida fikrlash |
| Tarixiy obidalar virtual safari | Google Expeditions, 3D-modellar | Vizual xotira, makon-idrok, tushunish |
| Tabiat qo'riqxonasi (ekologik dars) | Dronlar orqali onlayn efir | Atrof-muhitni tushunish, ekologik madaniyat |

Yuqorida jadvalda keltirilgan ekskursiya mashg'ulotlari zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilishi orqali o'quvchilarda ko'plab muhim kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Masalan, botanika bog'iga uyuştiriladigan ekskursiya davomida "PlantNet" ilovasi yordamida o'simliklarni aniqlash orqali o'quvchilar jonli tabiat bilan bevosita tanishadi, mustaqil izlanish olib boradi va ilmiy tahlil asoslarini egallaydi. Bu jarayon ularda kuzatuvchanlik, o'zaro taqqoslash, tasniflash va umumlashtirish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Muzey ekskursiyasida esa QR-kodli interaktiv gid tizimidan foydalanish orqali tarixiy ob'yektlar haqida audio yoki vizual ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarda tarixiy tafakkur, sabab-oqibat munosabatini tushunish, faktlarni tahlil qilish va ulardan to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Tarixiy obidalar bilan virtual tanishuv esa, ayniqsa, geografik yoki moliyaviy jihatdan tashrifi qiyin bo'lgan joylarni o'rghanishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Google Expeditions yoki 3D-modellar yordamida tashkil etilgan virtual sayohatlar o'quvchilarda makon tasavvuri, tarixiy joylarni anglash va ularni vizual xotirada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa ta'limi mazmunni jonlantirib, ongli idrokni kuchaytiradi.

Shuningdek, tabiat qo'riqxonalariga oid ekologik ekskursiyalarda dronlardan foydalanish orqali o'quvchilar jonli efirda hayvonot va o'simlik dunyosi, tabiiy landshaftlarni bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu usul nafaqat qiziqarli, balki ekologik madaniyatni, atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirishda ham samarali hisoblanadi.

Umuman olganda, har bir ekskursiya turi uchun tanlangan raqamli texnologiyalar bolalarning yoshiga mos, didaktik maqsadlarga yo'naltirilgan va amaliy foya keltiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa ekskursiya mashg'ulotlarini nafaqat vizual va qiziqarli, balki maqsadli, mazmunli va samarali shaklga keltirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, keljak shunchalik barqaror bo'ladi. Ekologik ta'lim va tarbiya bolaning atrof-muhiti, tevarak-atrofi va istiqboli haqidagi tasavvurlari bilan chambarchas bog'liqdir [7]. Yuqorida olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ekologik munosabatini oshirishda ekskursiya mashg'ulotlari nafaqat bilish faoliyatini faollashtiradi, balki ta'limi jarayonni hayotga yaqinlashtirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham beqiyos o'rinn tutadi.

Bugungi kunda ta'limga raqamli transformatsiyasi ekskursiya mashg'ulotlariga ham yangi yondashuvlarni olib kirmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida ekskursiyalarni interaktiv, vizual va o'quvchilarning yosh psixologiyasiga mos shaklda tashkil etish imkoniyatlari kengaymoqda. So'nggi yillarda paydo bo'lgan integratsiyalashgan ta'limga texnologiyalari, kognitiv yondashuv, muammoli ta'limga texnologiyasi, intellekt kartalari asosidagi ta'limga metodlari o'quvchining idrok va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda [5, 565].

Virtual sayohatlar, QR-kodli o'rghanish, AR/VR texnologiyalar va mobil ilovalar orqali o'quvchilar ekskursiya obyektlari bilan nafaqat bevosita, balki bilvosita ham tanishish imkoniyatiga ega bo'imoqda. Bu esa dars mazmunini chuqurlashtiradi, fanlararo integratsiyani kuchaytiradi hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tavsiya etiladi:

- Boshlang'ich ta'limga tizimida ekskursiya mashg'ulotlariga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqilsin va ularni o'qituvchilarga tarqatish yo'lga qo'yilsin.
- O'qituvchilarning texnologik savodxonligini oshirish maqsadida ularni raqamli pedagogika bo'yicha malaka oshirish kurslariga jalb etish tavsiya etiladi.
- Har bir fan bo'yicha raqamli ekskursiya modullari (video, mobil ilova, interaktiv xarita, testlar) ishlab chiqilib, muktablar o'quv rejasiga integratsiya qilinsin.
- Ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan ekskursiyalarda mobil texnologiyalarni yordamchi vosita sifatida qo'llash uchun amaliy qo'llanmalar ishlab chiqilsin.
- Ekskursiya mashg'ulotlarining samaradorligini baholashda o'quvchi refleksiysi, interaktiv testlar va ijodiy topshiriqlar asosida tahlil qilish usullari keng joriy etilsin.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ekskursiya mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish – ta'limga jarayonini zamonaviylashtirish, o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularni real hayotga tayyorlash yo'lida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

**Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori. 2020-yil 6-noyabr.: <https://lex.uz/docs/-5297046>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" to'g'risidagi PQ-358-sonli qarori.: <https://lex.uz/docs/-7158604>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori. 2020-yil 6-noyabr.: <https://lex.uz/ru/docs/-5085887?ON-DATE=31.05.2023&ONDATE2=26.03.2021&action=compare>
4. Yuldasheva G. T., Akmalova N. B. Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni. – International scientific and practical conference "New methods and innovations in the integration of disciplines of mathematics and information technology", 2025-yil 18-aprel. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0071/71_i_20250426_211741_3.42.pdf
5. Bovanova U. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ekologik ijobiy munosabatini oshirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. – Toshkent amaliy fanlar universiteti: "Ilm-fan taraqqiyoti: muammo va istiqbollar" II an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2024-yil 17-dekabr.
6. Izzatullayev I. Z., Sultonov R. M., Fayzullayev B., Niyazova O. B. "Ekologiya" fanidan o'quv-uslubiy majmua. – Samarqand, 2010-yil.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
 - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
 - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03** Maxsus pedagogika
 - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07** Ta'limda menejment
 - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00** Tarix fanlari
 - 19.00.00** Psixologiya fanlari
 - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00** Kimyo fanlari
 - 03.00.00** Biologiya fanlari
 - 09.00.00** Falsafa fanlari
 - 10.00.00** Filologiya fanlari
 - 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.